

XORIJIY O'ZLASHMALAR -TERMINOLOGIK MODERNIZATSIYALASHUV OMILI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7707401>



ELSEVIER



Received: 07-03-2023

Accepted: 08-03-2023

Published: 22-03-2023

Mahkamova Durdona Ne'matovna

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
durdonamahkamova7@mail.com



Abstract:

Keywords:

About: FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Sohaning doimiy ravishda taraqqiyotda bo'lishi, dinamik holati uning tarkibidagi tushunchalar, terminlarda ham o'z ifodasini topadi. Sohaga oid terminologik tizim o'z tarkibini o'zgartirishi, yangi birliklar bilan boyib turishi, ba'zi hollarda termin iste'moldan chiqib uning o'rnini yangi birlik egallashi ham mumkin. "Noo'rin, asossiz tanlangan atama ma'lum davr o'tishi bilan ifodalangan tushuncha mazmuniga mos kelmasa, iste'moldan chiqadi, yangi atama yaratiladi yoki uning sinonimi o'rnini egallaydi. Shuning uchun ham atama lug'atlari ma'lum vaqt o'tishi bilan qayta nashr qilinadi -to'ldiriladi yoki asossiz atamalar boshqa qulay va aniq atamalar bilan almashadi"⁴² Lingvistikada terminlarning o'zgarishi hamda yangi termin paydo bo'lishi ilm-fan, texnikaning rivoji bilan uzviy bog'liq. Bu borada tilshunos L.I.Bojno qaydlarini yodga olamiz: "Texnika taraqqiyoti ta'sirida terminologiya o'zaro aloqador ikki qonuniyat asosida, birinchidan, ilmiy-texnika progressi qonuniyatlari bilan, ikkinchidan, til rivojlanishining umumiyligi qonuniyatlari bilan bog'liq ravishda o'zgarib boradi"⁴³ Texnik malakaning endilikda ma'lum tor doiradan chiqib, ommaviy xarakterga ega bo'layotganligi va turli sohalarning mutaxassislari kundalik faoliyatida fan va texnika yutuqlaridan keng foydalanayotgani terminlarga bo'lgan yuksak talab bilan uning hozirgi holati orasidagi nomunofiqlikni bartaraf etishni talab etadi⁴⁴.

Aksariyat hollarda yangi terminlarni yaratish ishiga oddiy tarjima yoki kalkalash jarayoni sifatida qaraladi. Terminologiyadagi mazkur holat terminlar tizimidagi nomutanosiblik hamda tartibsizliklarning asosiy sabablaridan biri

⁴² Абдурахмонов Ф. Мамажонов С. Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент.2002.85-бетлар

⁴³ Божно Л.И. научно –техническая терминология как один из объектов изучения закономерностей развития языка// Филологические науки.1971.№5 . –С.103

⁴⁴ Йўлдошев И. Ўзбек китобатчилик терминологияси. –Тошкент: Фан, 2004, 168 -бет

sanaladi. Zotan, yangi termin yaratish har tomonlama mukammal bo'lgan, ma'lum talablarga javob beruvchi ijodiy jarayondir. Har qanday ilmiy-texnikaviy termin oddiy so'zning yoki so'z birikmasining terminologiyadagi aksi bo'lib, u aniq chegaralangan hamda belgilangan mazmunga , bu mazmun esa, kontekstdan qat'iy nazar, faqat shu terminga oid bo'lishi lozim.⁴⁵ Lottening bu boradagi fikrlari davom etar ekan,u barcha sohaviy terminologik tizimlar uchun umumiyligini bo'lgan bir qancha jiddiy kamchiliklarni ko'rsatib o'tadi va ular orasida terminologiyani keragidan ortiq miqdorda xorijiy so'zlar bilan to'ldirib tashlash holati mavjudligini alohida uqtirib, qoralaydi. Hech qanday til faqat o'z terminelementlari hisobiga terminologiyasini qura olmaydi. Til qurilishi jarayoni shuni ko'rsatadiki, dunyoda sof tilning o'zi umuman yo'q. Har doim boshqa tillardan termin o'zlashtirish jarayoni sodir bo'lib turadi, bu jarayondan chekinish mumkin emas.Ammo ehtiyoj sezilmagan holatlarda ham xorijiy terminlarni sun'iy ravishda tilga olib kirish har doim o'zini oqlayvermaydi. Bunday holatlarda ko'proq o'z til imkoniyatlaridan foydalanish va bunda termin ifodalashi lozim bo'lgan tushuncha mohiyati bilan termin o'rtasidagi mutanosiblikni saqlashga e'tiborni qaratish lozim. Darhaqiqat, tilni ajnabiyligi so'zlar xurujidan saqlash til egalariga, terminologik tizim doirasida qaraydigan bo'lsak, terminshunoslarga bog'liq.

Ma'lumki , XXI asr yuksak texnologiyalar asri, globallashuvning tezlashishi davri. Bu davr jamiyatga yangidan-yangi sohalarni olib kirdi, yangi kasblarni kashf etdi. O'z davrida shunchaki soha sifatida qaralgan ba'zi yo'nalishlar, bizning asrimizga kelib, ilg'or sohalar qatoridan joy oldi. Ular safida *marketing, menejment, biznes, moliya* kabilarni ko'rish mumkin. Mazkur holatni soha modernizatsiyasi deb baholasak, u o'z o'mnida tilning leksik(xususan,terminologik) tizimida modernizatsiyalashuvni keltirib chiqaradi. Ya'ni mazmuniy, shakliy, lisoniy yangilanishlarni o'zida akslantiradi.

Xususan, so'nggi yillarda tilimizda yangi sohalarga daxldor bir termin paydo bo'ldi: *makler*. Ma'lumki makler oldi-sotdi ishlarida ikki tomon kelishuvini ta'minlovchi, oluvchiga sotuvchi tanlash, sotuvchiga esa xaridor topish bilan shug'ullanuvchi shaxs va bugun ular davlat ro'yxatidan aynan *makler* sifatida o'tishmoqda. Vaholanki, bizda qadimdan xuddi shu faoliyat bilan shug'ullanuvchilar bo'lgan va ular *dallollar* deb atalgan. *Makler* va *dallol* tushunchalarini ko'zdan kechirar ekanmiz, ular aynan mos kelishiga guvoh bo'lamiz. Faqat bizning davrimizda *dallol* so'zi salbiy ottenkaga ega bo'lib qolgani sababli o'z qatlamda mavjud so'zni tashqariga chiqarishga intilyapmiz. Aslida esa dalollik ishi bilan qadimda o'ziga xos mahoratga ega kishilargina shug'ullanishgan. Garchi ularning faoliyati ma'lum bir soha doirasida kuzatilmagan bo'lsa-da, savdo-sotiqlari ularsiz kechmagan. Keyinchalik, sho'ro

⁴⁵ Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. –М.:Изд-во АН,1961. –С.18

hukumati davrida bu soha qoralanib, *dallol* – “dalillar bilan asoslovchi shaxs” emas, balki “o’z manfaati uchun vositachilik qiluvchi odam” sifatida talqin qilingan. Hukumat tomonidan dalollik faoliyatiga keskin choralar ko’rilgani bois, til egalari ya’ni xalq ongida shu soha va shu so’zga nisbatan salbiy qarash paydo bo’lgan. Yuqorida qayd etganimizdek, *dallol* mohiyatan aynan *maklerdir*. Soha vakillari tomonidan makler terminining o’zgartirilmaganini esa *dallol* so’zidagi salbiy ma’noni ifodalash semasi bilan izohlash mumkin.

Xorijiy o’zlashma terminlar, xalqaro terminelementlar, ularning ona tilidagi me’yori haqida gap ketganda, bunday terminlarning qo’llanish sohalariga, mazkur terminlardan foydalanadigan fanlarga farqli yondashuv zarur. Aniq fanlar, tabiiy fanlar sohalaridagi mazkur terminlar me’yori bilan ijtimoiy-gumanitar fanlardagi ana shunday me’yor bir-biridan butunlay farqlanishi tabiiy bir hol. Masalan, matematika tili ijtimoiy-mafkuraviy omillar bilan unchalik bog’liq bo’lmagan fan tili sifatida anchayin bir xillikka ega, ya’ni ona tilidagi matematik terminologiyada boshqa tillardagi bilan muqobillikka ega bo’lgan xorijiy terminlar ko’p. Ammo ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida, masalan, tilshunoslik fanida aynan shunday bo’lishi mumkin emas⁴⁶. N.B.Gvishianiga tegishli yuqoridagi fikrlar dalilini soha va kasbni anglatuvchi terminlar doirasida ham ko’rshimiz mumkin:

Aniq, tabiiy fanlar terminologiyasidan misollar:

- 1) o’zbek tilida: *matematika (soha)-matematik (soha vakili)*, rus tilida: *matematika -matematik*, ingliz tilida: *mathematics -mathematician*
- 2) o’zbek tilida: *biologiya (soha) -biolog (soha vakili)*, rus tilida: *biologiya -biolog*, ingliz tilida: *biology -biologist*
- 3) o’zbek tilida: *fizika(soha) -fizik(soha vakili)*, rus tilida: *fizika -fizik*, ingliz tilida: *physics -physicist*

Ijtimoiy-gumanitar fanlar terminologiyasidan misollar:

- 1) o’zbek tilida: *tilshunoslik (soha) -tilshunos (soha vakili)*, rus tilida: *yazykovedenie -yazykoved*, ingliz tilida: *linguistics -linguist*
- 2) o’zbek tilida: *tarix (soha) -tarixchi(soha vakili)*, rus tilida: *istoriya -istorik*, ingliz tilida: *history -historian*
- 3) o’zbek tilida: *kitobshunoslik (soha) -kitobshunos(soha vakili)*, rus tilida: *bibliologiya=knigovedenie - bibliolog=knigoved*

Aytish mumkinki, tabiiy-aniq fanlar milliylik chegarasidan chiqib ketgan, ijtimoiy-gumanitar fanlarni esa milliylikdan tashqarida tasavvur etish mushkul. Shuning uchun ham xorijiy o’zlashmalar, dunyoda umummilliylilikning o’ziga xos ko’rsatkichlari sifatida tabiiy-aniq fanlarning belgilariga aylangan. Ijtimoiy-gumanitar fanlar insonning ruhiy-milliy olami tadqiqiga yo’nalganligi uchun xorijiy o’zlashmalarning keragidan ortiq ko’p bo’lishi bu fanlarning milliy-mantiqiy

⁴⁶Гвишиани Н.Б.Язык научного общения. –М.: Высшая школа, 1986. –С.15

muvozanatini muallaqlashtirishi mumkin.⁴⁷ Arab olimi Sato al-Xusriy ilg'or mamlakatlarning yutuqlarini o'zlashtirish haqidagi da'vatlarni xalq qalbida shamoyil topadigan ma'naviy madaniyatga tatbiq etmaslik lozimligini ta'kidlaydi⁴⁸. Ya'ni qanchalik ilg'or bo'lmasin, xorijiy o'zlashmalarni ma'naviy dunyo bilan bog'liq sohalarga olib kirmaslik kerak. Darhaqiqat, so'nggi yillarda ijtimoiy sohalar terminologiyasida bo'layotgan o'zgarishlar terminolog olimlar oldiga katta vazifalarni, o'z o'rnila hushyorlikni ham talab qilib qo'yemoqda. Boisi sohalararo yangi sohalarning paydo bo'lishi yoxud mavjud sohalarning tarmoqlanishi yangi terminlarga, xususan xorijiy terminlarga yo'l ochmoqda. E'tiborli jihat shundaki, bugun ba'zi olimlar tomonidan tilda mavjud terminlar o'rnila xorijiy terminlarni qo'llash holati kuzatilmoxda. Bu holatni ba'zilar yangi terminni iste'molga kiritishga urinish deb baholasalar, ba'zilar uslubni boyitish, ya'ni bir terminni takror qo'llashdan qochish deb izohlashmoqda. Fikrimizcha, har ikki holatda ham mavjud terminni qayta nomlashni oqlab bo'lmaydi. Sababi aynan shunday hodisalar terminologiyadagi sinonimiya, dubletlik, reterminologiya, omonimiya kabi hodisalarni keltirib chiqaradiki, ular terminologik tizimda chigal vaziyatlarni yuzaga keltiradi. O'zbek tilidagi xorijiy o'zlashmalarning me'yori va milliyligi masalasi ma'naviy-madaniy sohalar doirasida favqulodda ahamiyatga molik ekanligini hamisha yodda tutmoq lozim. Xorijiy terminlarni tartibga solishda ularning ma'nosini o'zbek tilida yuzaki tavsiflash yo'lidan borish ma'qul emas, amaliyotga kirib bo'lgan terminga o'zbekcha muqobil izlash va almashtirish tilda boshboshdoqlikka yo'l ochadi. Xorijiy terminga munosabat, eng avvalo, u o'zlashtirilgunga qadar bo'lishi zarur, o'zlashtirib bo'lingandan keyin esa kech bo'ladi.⁴⁹

Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'lishicha, o'zlashma terminlar tilga qanchalar o'rashmasin soha rivojlangani sayin ular bilan bog'liq yangi muammolar kelib chiqaveradi. Aynan shunday soha nomini anglatuvchi o'zlashma terminlardan biri *menejmentdir*.

Menejment (ing. managment -boshqarish, tashkil etish) -maxsus boshqarish faoliyati; boshqarish to'g'risidagi fan.

Ko'rsatilgan fan bugungi kunda taraqqiy topib, soha darajasiga ko'tarilgan va shu yo'nalishdagi mutaxassislarini tayyorlovchi maxsus ta'lim maskanlari mavjud. Soha vakili *menejer* deb ataladi. Muammoli tomoni shundaki, menejment o'z ichida tarmoqlarga bo'linib ketadi: *biznes menejmenti, savdo menejmenti, ta'lim menejmenti* va h.k. . Mazkur bo'linish endilikda soha vakili yoxud kasbni

⁴⁷ Махмудов Н. Сўз ўзлаштиришда меъёр ва миллийлик / Хорижий сўз ва терминлардан фойдаланишда меъёр ва миллий-ассоциатив фикрлаш муаммолари. –Тошкент, 2011, 15-бет

⁴⁸ Никольский Л.Б. Язык в политике и идеологии стран зарубежного Востока. –М.:Наука, 1986. –С.118

⁴⁹ Махмудов Н. Сўз ўзлаштиришда меъёр ва миллийлик / Хорижий сўз ва терминлардан фойдаланишда меъёр ва миллий-ассоциатив фикрлаш муаммолари. –Тошкент, 2011, 16-бет

bildiruvchi terminga ham polisemantiklik vazifasini yuklaydi. Soha vakili "menejer" -har qaysi soha o'z boshqaruvchisiga ega va shunday vazifani bajaruvchi shaxs boshqaruvchi ya'ni menejer sanaladi. Barcha menejerlar u xoh ta'lif menejeri bo'lsin, xoh biznes menejer ular nomlanishi o'rtasida ma'noviy bog'liqlik bo'ladi. Biroq boshqa tomondan qaralganda ta'lifni boshqaruvchi shaxs butunlay boshqa vazifa (ta'lif jarayoni nazorati) ni, biznes boshqaruvchisi esa umuman boshqa vazifa (savdo-sodiq ishlarini tashkillashtirish, yaxshi daromadga olib boruvchi yo'llarni izlash va h.k)larni bajaradi. Aksariyat insonlar menejment va menejer terminlarini iqtisodiy termin sifatida idrok qilishadi. Bu esa shu soha terminologiyasida ayrim o'zgarishlar qilish lozimligini ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan ko'rindan, terminologik modernizatsiyalashuv bir paytning o'zida bir qancha jarayonlarni: shakliy, semantik, leksik-struktur o'zgarishlar va yangilanishlarni o'z ichiga olishi mumkin. Ayni paytda ularning har biri alohida yondashuvni, terminologik tadqiqni talab etadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Гвишиани Н.Б. Язык научного общения. -М.: Высшая школа, 1986. -С.15
2. Махмудов Н. Сўз ўзлаштиришда меъёр ва миллийлик / Хорижий сўз ва терминлардан фойдаланишда меъёр ва миллий-ассоциатив фикрлаш муаммолари. -Тошкент, 2011, 15-бет
3. Никольский Л.Б. Язык в политике и идеологии стран зарубежного Востока. -М.:Наука, 1986. -С.118